

**Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi**

Tarix yo’nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** 2001 yil 30 avgustda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi qonun va unga asosan qabul qilingan Vazirlar Mahkamasi qarorlari O‘zbekiston viloyatlarida madaniy meros obyektlarini tizimli ravishda muhofaza qilish, ro‘yxatga olish, ta’mirlesh va foydalanishni tashkil etishga asos bo‘ldi. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida inspeksiyalar va ekspert kengashlari tashkil etilib, 2002–2010 yillar davomida yuzlab arxitektura yodgorliklari, ansambllar va diqqatga sazovor joylar ilmiy asosda o‘rganildi va rasmiy ro‘yxatga kiritildi. Madaniy meros obyektlarining monitoringi, konservatsiya va restavratsiya ishlari, shuningdek, ijaraga yoki tekin foydalanish orqali jamiyat bilan integratsiyalashuvi tizimli tarzda amalga oshirildi. Ushbu ishlar viloyat inspeksiyalari faoliyati, moliyaviy va moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlash hamda ilmiy tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, madaniy merosni kelajak avlodlar uchun saqlash va jamiyat hayotida faol foydalanishni ta’minlashga xizmat qildi.

**Kalit so‘zlar:** Madaniy meros, muhofaza qilish, ro‘yxatga olish, ekspert kengashi, monitoring, restavratsiya, konservatsiya, Samarqand viloyati, Buxoro viloyati, Navoiy viloyati, ijaraga berish, ilmiy tadqiqot.

## **KIRISH**

Madaniy meros insoniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini shakllantirish maqsadida 2001 yil 30 avgustda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun viloyatlar darajasida inspeksiyalar va ekspert kengashlari faoliyatini tashkil etishga, obyektlarni ro‘yxatga olish, monitoring, ta’mirlesh, konservatsiya va restavratsiya ishlari orqali saqlashga asos yaratdi. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida amalga oshirilgan tizimli ishlar, madaniy merosni jamiyat bilan integratsiyalashgan holda saqlash va undan foydalanishning samarali mexanizmlarini shakllantirdi. Shu bilan birga, moddiy-texnik va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ilmiy

tadqiqotlar va ijtimoiy hamkorlik orqali madaniy meros obyektlarining kelajak avlodlar uchun asrab-avaylanishi ta'minlandi.

## ASOSIY QISM

2001 yil 30 avgustda qabul qilingan "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun va 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori madaniy merosni saqlash va undan foydalanish tizimini shakllantirish uchun asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida inspeksiyalar va Idoralararo komissiyalar tuzilib, viloyat hududidagi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ro'yxatga olish va ulardan foydalanish ishlari muvofiqlashtirildi. Samarqand viloyatida 2002–2005 yillarda 721 ta obyekt, 2006 yilda esa 52 ta yangi obyekt hatlovdan o'tkazildi. Buxoro viloyatida esa 2002–2008 yillarda 997 ta obyekt aniqlanib, 660 tasi arxitektura yodgorliklari sifatida rasmiy ro'yxatga kiritildi. Muhofaza ostiga olingan obyektlar respublika va mahalliy ahamiyatga ko'ra guruhlandi: yodgorliklar, ansambllar va diqqatga sazovor joylar.

Viloyat inspeksiyalari tarkibida ekspert kengashlari tashkil etilib, madaniy meros obyektlarini ilmiy, tarixiy, me'moriy va badiiy jihatdan o'rganish, ta'mirlash va konservatsiya bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Har yili majlislar o'tkazilib, obyektlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va hududiy boshqaruv organlariga taqdim qilindi. Samarqand viloyatida 2002–2010 yillarda 255 ta dalolatnoma tuzilgan, 10 mingdan ortiq fotosuratlar olinib, obyektlar ishjildlariga joylashtirildi. Foydalanuvchilar ham obyektlarning texnik holatini muntazam kuzatishga jalb qilindi va har qanday buzilish yoki yomonlashuv darhol inspeksiyaga xabar qilindi. Shu tarzda madaniy meros obyektlarini tizimli ravishda nazorat qilish va saqlash tizimi yo'lga qo'yildi. Shohizinda majmuasi, Xoja Ahror majmuasi, Oqsaroy maqbarasi va Raboti Malik sardobasi kabi obidalar kompleks restavratsiya va konservatsiya qilindi. Arxeologik qazishlar natijalari loyihalarga kiritildi, gumbazlar tiklandi, dekorativ bezaklar restavratsiya qilindi, hudud obodonlashtirildi va ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratildi. Madaniy meros obyektlari ijaraga yoki tekin foydalanishga berilib, jamiyatning turli qatlamlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi: "Oltin meros" jamoat birlashmasi, bolalar jamiyatlari, diniy tashkilotlar va nogironlar jamiyatlari faol ishtirok etdi. Bu amaliyot madaniy merosni saqlash bilan birga, uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini oshirdi.

Viloyat inspeksiyalari moddiy-texnik jihatdan zaif bo'lib, zamonaviy texnika, ofis jihozlari va ish sharoiti yetarli emas edi. Buxoroda 2008–2009 yillarda madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya ishlariga 3 180,25 mln so'm mablag' ajratildi, shundan 1 495 mln so'mini respublika byudjeti, qolganini mahalliy byudjet va xayriyalar hisobidan amalga oshirildi. Viloyat inspeksiyalari va ekspert kengashlari

faoliyati orqali madaniy meros obyektlarini tizimli saqlash, monitoring, ilmiy tadqiqotlar, konservatsiya va restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Ushbu tizimli yondashuv nafaqat obyektlarning tarixiy ahamiyatini saqlashga, balki ularni jamiyat hayotida faol foydalanishga imkon yaratdi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonning madaniy merosini muhofaza qilish va undan foydalanish bo‘yicha 2001 yilgi qonun va unga asosan qabul qilingan qarorlar viloyat inspeksiyalari faoliyatini tizimli asosda yo‘lga qo‘yishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida tashkil etilgan inspeksiyalar va ekspert kengashlari madaniy meros obyektlarini ilmiy, tarixiy, me‘moriy va badiiy jihatdan o‘rganish, ro‘yxatga olish, konservatsiya va restavratsiya qilish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirdi. Tizimli monitoring va foydalanuvchilarni jalb qilish orqali obyektlarning texnik holati muntazam nazorat qilindi. Bu esa madaniy meros obyektlarini vaqtida aniqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun saqlash imkonini yaratdi. Restavratsiya va konservatsiya ishlari orqali Shohizinda, Xoja Ahror, Oqsaroy va Raboti Malik kabi obidalar asl holatiga yaqinlashtirildi va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shuningdek, madaniy meros obyektlarini ijaraga yoki tekin foydalanishga berish orqali jamiyatning turli qatlamlarini saqlash jarayoniga jalb qilish amaliyoti samarali natija berdi. Bu madaniy merosning nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatini oshirdi.

Moliyaviy va moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmagan taqdirda ham viloyat inspeksiyalari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot, monitoring va hujjatlashtirish ishlari madaniy merosni saqlash tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, moddiy-texnik baza va xodimlarning ijtimoiy himoyasi tizimli faoliyatning barqarorligini ta‘minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. Natijada, 2001–2010 yillar davomida O‘zbekiston viloyatlarida madaniy meros obyektlarini tizimli saqlash, ularni ilmiy asosda restavratsiya va konservatsiya qilish, monitoring va jamiyat bilan integratsiyalashgan foydalanish orqali samarali tizim shakllantirildi. Ushbu tizimli yondashuv nafaqat madaniy merosning saqlanishini, balki uning ijtimoiy hayotdagi rolini kuchaytirishni ham ta‘minladi.

## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida 2001 yilda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun madaniy merosni saqlash va undan samarali foydalanish tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida inspeksiyalar va ekspert kengashlari orqali obyektlarni ro‘yxatga olish, monitoring, konservatsiya va restavratsiya ishlari tizimli ravishda amalga oshirildi. Madaniy meros obyektlarini

ijaraga berish yoki tekin foydalanishga topshirish amaliyoti jamiyatning turli qatlamlarini saqlash jarayoniga jalb qildi va obyektlarning ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini oshirdi. Shu bilan birga, moliyaviy va moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlash tizimning samaradorligini ta’minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. Natijada, 2001–2010 yillarda viloyat inspeksiyalari tomonidan olib borilgan tizimli ishlar O‘zbekiston madaniy merosini kelajak avlodlar uchun saqlash va rivojlantirishda mustahkam ilmiy va amaliy asos yaratdi.

## FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. ЎРМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА. Самарқанд вилоят тарих ва маданият ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш Давлат назоратининг 2006 йил давомида олиб борилган ишлари бўйича ҳисобот. Самарқанд, 2006. 1–2-бет.
2. ЎРМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА. Самарқанд вилоят тарих ва маданият ёдгорликларини сақлаш ва улардан фойдаланиш Давлат назоратининг 2009 йил давомида олиб борилган ишлари бўйича ҳисобот. Самарқанд, 2009. 3, 5–6, 10-бетлар.
3. ЎРМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш Бухоро вилоят инспекцияси 01.05.2008 й. ҳолатидаги ҳисоботи. 2–3, 5-бетлар.
4. ЎРМВ ММОМҚФИИЧББ ЖА. Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш Бухоро вилоят инспекцияси 2009 й. ҳисоботи. 3-бет.